

## **KRON KASALLIGIDA SITOKINLAR DISBALANSI VA HUYAYRAVIY IMMUN JAVOBNING OPERATSIYADAN KEYINGI QAYTALANISHDAGI ROLI**

*Sattarov Jasur Elmurodovich*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

**Kirish.** Kron kasalligi ichak devorida surunkali yallig'lanish jarayoni rivojlanishi bilan kechuvchi murakkab immunopatologik holat bo'lib, uning klinik kechishi ko'p jihatdan immun tizimining holatiga bog'liq. Jarrohlik davolash asoratlarni bartaraf etishda muhim o'rin tutsa-da, operatsiyadan keyingi davrda kasallikning qaytalanish ehtimoli yuqori bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, Kron kasalligining qaytalanishida asosiy patogenetik mexanizmlardan biri sitokinlar tizimidagi muvozanatning buzilishi va T-limfotsitlar subpopulyatsiyalarining noto'g'ri faollashuvidir. Shu sababli sitokinlar profili va hujayraviiy immun javobning dinamik o'zgarishlarini o'rganish operatsiyadan keyingi reividiv mexanizmlarini chuqur tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqotga Kron kasalligi sababli jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan 82 nafar bemor kiritildi. Bemorlar kasallik kechishi va davolash yondashuvlariga qarab ikki guruhga ajratildi. Nazorat sifatida 20 nafar sog'lom shaxslarning immunologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyingi 7, 14, 30, 90 va 180-sutkalarda hujayraviiy immunitet ko'rsatkichlari (CD3+, CD4+, CD8+, CD16+, CD25+, CD83+) hamda sitokinlar profili (TNF- $\alpha$ , IL-17, IL-21, TGF- $\beta$ , IL-4, INF- $\gamma$ ) aniqlab borildi. Immunologik tekshiruvlar immunoferment tahlil va monoklonal antitanalarga asoslangan usullar yordamida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar statistik va korrelyatsion tahlil asosida baholandi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, Kron kasalligining qaytalanishi sitokinlar disbalansi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Qaytalanish

kuzatilgan bemorlarda yallig'lanishni qo'llab-quvvatlovchi TNF- $\alpha$ , IL-17 va IL-21 darajalari sezilarli darajada oshgan bo'lib, yallig'lanishga qarshi TGF- $\beta$  va IL-4 ko'rsatkichlari pasaygan. Hujayraviy immunitet tahlilida CD8<sup>+</sup> sitotoksik T-limfotsitlar va CD16<sup>+</sup> tabiiy killer hujayralar faolligining ortishi, CD4<sup>+</sup> T-xelperlar va CD25<sup>+</sup> T-regulyator limfotsitlar nisbatining kamayishi kuzatildi. Sitokinlar va limfotsitlar subpopulyatsiyalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik Th17 hujayralarining faollashuvi va T-regulyator tizimning susayishi qaytalanish rivojlanishida yetakchi omil ekanini ko'rsatdi.

**Muhokama.** Olingan natijalar Kron kasalligining immunopatogenezida sitokinlar tizimi markaziy o'rin egallashini tasdiqlaydi. TNF- $\alpha$ , IL-17 va IL-21 ning ustun ekspressiyasi ichak devorida yallig'lanish jarayonining davom etishiga va immun javobning patologik yo'nalishda kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, TGF- $\beta$  va IL-4 ning past darajalari immun tolerantlikning buzilishi va autoimmun mexanizmlarning faollashuviga sharoit yaratadi. Ushbu jarayonlar operatsiyadan keyingi davrda kasallikning klinik qaytalanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, sitokinlar monitoringining amaliy ahamiyatini asoslaydi.

**Xulosa.** Kron kasalligida operatsiyadan keyingi qaytalanish sitokinlar profili va hujayraviy immun javobdagi disbalans bilan belgilanadi. TNF- $\alpha$ , IL-17, IL-21 ning oshishi hamda TGF- $\beta$  va IL-4 ning pasayishi kasallik redivivining muhim immunologik markerlari hisoblanadi. Sitokinlar va limfotsitlar subpopulyatsiyalarini kompleks monitoring qilish Kron kasalligida qaytalanishni erta aniqlash va individual profilaktik davolash strategiyalarini ishlab chiqish uchun samarali ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.